



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 106 sahifa,
22-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Pedagog kadrlar tayyorlashda microteaching metodining tashkiliy asoslari va uni samarali qo'llash mexanizmlari.....	10
Abdiqayumova Malika	
Ijtimoiy pedagogik faoliyatning bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni	14
Abdullayeva Yulduz Qurbon qizi, Xudayberdiyeva Zilola Azamat qizi	
Talabalarning og'zaki nutqini interfaol usullar yordamida rivojlantirish	18
Atamirzayeva Ezoza	
English Language Barriers Among Rural Ecotourism Guides in Uzbekistan	22
Aminova Asilaxon Sobir qizi	
Совершенствование методов обучения студентов эффективному управлению временем на основе тайм-менеджмента.....	25
Уразова М. Б., Абатова У. Б.	
Zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni va samaradorligi	30
Xurramova Dilso'z Baxtiyor qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik ahamiyati.....	33
Gaipova Akjunis Qayratovna	
Bo'lajak o'qituvchilarda o'zini o'zi tashkil etish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	37
Alimov Bekzod Nematovich	
O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tadbirlarini maktab darajasida boshqarishning integratsiyalashgan yondashuvi	41
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar	48
Xurramova Sanobar Mahmatmurod qizi	
Pedagogical Integration as a Factor of Humanization in Professional Teacher Education	53
Yusupova Mukhabbat Anatolyevna	
Yoshlarda iqtisodiy tafakkur shakllanishida etnik muhitning ta'siri.....	58
Erkinova Sevara Najmiddin qiz	
Innovative Approaches to Teaching English in Higher Education: a Methodological Study	61
Gulsara Khakimova	
Bo'lajak pedagoglarda kognitiv faollikni rivojlantirishda neyropedagogika asoslari.....	63
Hikmatova Jamila Fatox qizi	
Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish texnologiyalari.....	68
I. S. Xamrayeva, Nuriddinova Muxayyo Ishxodjayevna	
Badiiy matn asosida nutqiy ko'nikmalar va ijodiy tafakkur integratsiyasini ta'minlash metodikasi	73
Jo'rayeva Sevinch Abdialim qizi	
Etnopedagogik muhitda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish.....	77
Murodova Farangis G'anisherovna	
Malaka oshirish jarayonida muammoga asoslangan o'qitish vositasida MTT tarbiyachilarining 4K ko'nikmasini rivojlantirish texnologiyasi	81
Ravshanova Xafiza Komilovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi vositalaridan (ertak, maqol, qo'shiq, afsona, doston va boshqalar) foydalanishning nazariy asoslari, xalqaro va milliy tajribasi	85
Tog'ayeva Munisa Muxammadiyevna	
Akademik ko'nikmalarni rivojlantirish asosida kelajakdagi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish	89
Tursunova Elmira Ulug'bekovna, Rayimova Mushtariy Raup qizi	
Sensor integratsiya autizm spektori buzilishi bo'lgan bolalarning xulq-atvor va hissiy holatiga ta'siri.....	91
Xamidova Muyassar Polsaidovna, Abdullayeva Muslima Shovkat qizi	



Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	96
Xoshimova Dilobar Kuchkarovna, Nortosheva Dildora Orif qizi, Avazmurodova Mehribon Sharif qizi	
Инновационная методика нравственного воспитания в начальных классах: подход межпредметной интеграции	101
Улугмурадова Шохсанам	



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'YIN ASOSIDA TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Gaipova Akjunis Qayratovna

Toshkent shahri Olmazor tumani 8-sonli davlat
maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi yordamchisi

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik ahamiyati, uning bolalar rivojlanishidagi o'rni va samaradorligi tahlil qilinadi. O'yin faoliyati orqali bolalarda tafakkur, nutq, ijtimoiy ko'nikmalar hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida didaktik, harakatli va rolli o'yinlardan foydalanishning metodik jihatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari o'yin asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bolalarning bilimlarni samarali, qiziqarli va faol tarzda o'zlashtirishiga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, o'yin faoliyati, pedagogik texnologiya, didaktik o'yinlar, rivojlantiruvchi ta'lim, tarbiyachi faoliyati.

Abstract: The pedagogical significance of organizing game-based education in preschool educational organizations, as well as its role and effectiveness in children's development, is analyzed. The development of thinking, speech, social skills, and creative abilities in children through game activities is discussed. In addition, methodological aspects of using didactic, physical, and role-playing games in the educational process are examined. The results indicate that education organized on the basis of games enables children to acquire knowledge effectively, in an engaging manner, and with active participation.

Key words: preschool education, game activities, pedagogical technology, didactic games, developmental education, educator activity.

Аннотация: Анализируется педагогическое значение организации игрового обучения в дошкольных образовательных организациях, а также его роль и эффективность в развитии детей. Освещаются вопросы развития мышления, речи, социальных навыков и творческих способностей детей посредством игровой деятельности. Кроме того, рассматриваются методические аспекты использования дидактических, подвижных и ролевых игр в образовательном процессе. Результаты исследования показывают, что обучение, организованное на основе игр, способствует эффективному, увлекательному и активному усвоению знаний детьми.

Ключевые слова: дошкольное образование, игровая деятельность, педагогические технологии, дидактические игры, развивающее обучение, деятельность педагога.

KIRISH

Maktabgacha yosh davri inson hayotidagi eng muhim va mas'uliyatli bosqichlardan biri bo'lib, aynan shu davrda shaxsning asosiy psixologik va ijtimoiy xususiyatlari shakllana boshlaydi. Bolalarda tafakkur, nutq, xotira, tasavvur hamda ijtimoiy ko'nikmalar aynan shu jarayonda rivojlanadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tizimini samarali tashkil etish, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini yo'lga qo'yish pedagogika fanining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yaqinda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-19-sonli¹ Farmoniga muvofiq, bir yillik maktabga tayyorlov guruhlarining ta'lim dasturi majburiy umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi sifatida joriy etilmoqda. Ushbu qadam maktabgacha ta'limning davlat siyosatidagi ahamiyatini yanada mustahkamlash, bolalarni umumiy o'rta ta'limga samarali tayyorlash hamda ularning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin faoliyati eng tabiiy va samarali o'quv vositasi ekanligini tasdiqlaydi. O'yin jarayonida bola o'zini erkin his qiladi, mustaqil fikrlashga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-19-sonli Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-8037353>

intiladi hamda yangi bilim va ko'nikmalarni oson o'zlashtiradi. O'yin orqali bolalar atrof-muhitni anglaydi, predmetlar va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunadi, shuningdek, o'z tajribasini boyitadi. Ayniqsa, rolli o'yinlar bolalarda ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, o'yin faoliyati bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, nutqini boyitish hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Didaktik o'yinlar esa bilimlarni mustahkamlash va takrorlashda samarali vosita bo'lib, ta'lim jarayonini qiziqarli va mazmunli tashkil etishga yordam beradi.

Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin asosida ta'limni tashkil etish nafaqat bolalarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning har tomonlama rivojlanishiga, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy faol shaxs bo'lib shakllanishiga zamin yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'limda o'yin faoliyatining pedagogik ahamiyati ko'plab olimlar tomonidan asoslab berilgan. Jumladan, L.S. Vygotskiy bolalar psixologiyasi bo'yicha tadqiqotlarida o'yin faoliyatini bolaning yaqin rivojlanish zonasi bilan bevosita bog'laydi va aynan o'yin orqali bola murakkab ijtimoiy va intellektual faoliyatga tayyorlanishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, o'yin jarayonida bola o'z imkoniyatlaridan yuqoriroq darajada faoliyat yuritadi va bu uning tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbek pedagogikasida ham o'yin asosida ta'limni tashkil etish muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. Hasanboyeva O. maktabgacha pedagogika bo'yicha tadqiqotlarida o'yinlarni ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida ko'rib, ular orqali bolalarning bilim, ko'nikma va malakalari samarali shakllanishini asoslab beradi. Usmonova M. esa maktabgacha ta'lim metodikasiga oid ishlarida didaktik o'yinlarning ta'limiy ahamiyatini ochib berib, ularni mashg'ulotlarga integratsiya qilish bolalarning o'quv faolligini oshirishini ta'kidlaydi.

Shuningdek, "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim davlat o'quv dasturida o'yin faoliyati bolalar rivojlanishining asosiy vositasi sifatida e'tirof etilib, ta'lim jarayonini o'yin asosida tashkil etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Mazkur dasturda o'yin orqali bolalarda ijtimoiy, nutqiy va kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu yondashuv o'yin asosidagi ta'limning ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslanganligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin asosida ta'limni tashkil etishning samaradorligini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Ma'lumotlar, avvalo, pedagogik kuzatuv usuli orqali yig'ildi, bunda tarbiyachilar faoliyati hamda bolalarning o'yin jarayonidagi ishtiroki tizimli ravishda o'rganildi. Shuningdek, suhbat va anketa usullari yordamida tarbiyachilar hamda ota-onalarning o'yin asosidagi ta'limga bo'lgan munosabati, uning samaradorligi haqidagi fikrlari to'plandi. Tajriba-sinov ishlari davomida didaktik, rolli va harakatli o'yinlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar amaliyotga joriy etilib, bolalarning bilim darajasi, muloqot ko'nikmalari va ijodiy faolligi kuzatildi.

Olingan ma'lumotlar tahlili sifat va miqdoriy yondashuvlar asosida amalga oshirildi. Kuzatuv natijalari taqqoslash usuli orqali tahlil qilinib, o'yin asosida va an'anaviy usulda tashkil etilgan mashg'ulotlar samaradorligi solishtirildi. Anketa va suhbat natijalari umumlashtirish hamda guruhlash orqali qayta ishlanib, asosiy tendensiyalar aniqlab olindi. Shuningdek, statistik tahlil elementlari yordamida bolalarning rivojlanish ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar baholandi. Natijada o'yin asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining bolalar faolligi, bilimlarni o'zlashtirish darajasi va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'yin faoliyatining bolalar rivojlanishidagi o'rni

O'yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik va pedagogik rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu faoliyat turi bolalar uchun nafaqat hordiq chiqarish vositasi, balki atrof-muhitni anglash, bilim va tajriba orttirishning eng tabiiy shakli hisoblanadi. O'yin jarayonida bolalar mustaqil fikrlashni o'rganadi, muammoli vaziyatlarga yechim topishga harakat qiladi hamda tengdoshlari bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

O'yin asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bolalarning har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, bunday yondashuv jamoada ishlash va hamkorlik madaniyatini shakllantiradi, bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda nutq va kommunikativ ko'nikmalarini boyitadi. Shu bilan birga, o'yin jarayonida bolalarning ijodiy tasavvuri va fantaziyasi kengayadi, ularning o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishi ortadi.



Bundan tashqari, o'yin faoliyati bolalarning emotsional holatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular o'z his-tuyg'ularini erkin ifoda etishni o'rganadi, o'ziga bo'lgan ishonchi mustahkamlanadi va ijtimoiy muhitga moslashish jarayoni yengillashadi. Ayniqsa, rolli va jamoaviy o'yinlar bolalarda ijtimoiy rollarni anglash va ularga mos ravishda harakat qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin faoliyatidan samarali foydalanish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Turli o'yin turlarini – didaktik, harakatli va rolli o'yinlarni ta'lim jarayoniga uyg'unlashtirish orqali mashg'ulotlarni yanada qiziqarli, mazmunli va samarali tashkil etish mumkin.

Didaktik o'yinlar

Didaktik o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan muhim pedagogik vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu o'yinlar ta'limiy maqsad asosida tashkil etilib, bolalarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni faol fikrlashga undash hamda mustaqil ravishda xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Didaktik o'yinlar jarayonida bolalarning diqqatini jamlash, xotirasini mustahkamlash va tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Masalan, ranglarni farqlashga oid o'yinlar bolalarning sezgi va idrokini rivojlantirsa, shakllarni tanish va solishtirishga doir mashg'ulotlar ularning mantiqiy fikrlashini kuchaytiradi. Shuningdek, sanashga oid o'yinlar orqali bolalarda elementar matematik tasavvurlar shakllanadi.

Bundan tashqari, didaktik o'yinlar bolalarning nutqini rivojlantirishda ham muhim o'rin tutadi. O'yin jarayonida ular yangi so'zlarni o'zlashtiradi, fikrini aniq va ravon ifodalashga o'rganadi. Eng muhimi, bunday o'yinlar ta'lim jarayonini qiziqarli va jonli tarzda tashkil etishga yordam berib, bolalarning bilimlarni oson va samarali o'zlashtirishini ta'minlaydi.

Rolli o'yinlar

Rolli o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy tajribasini boyitishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'yin turlaridan biridir. Ushbu o'yinlar jarayonida bolalar turli rollarni ijro etish orqali kattalar hayoti, kasblar va ijtimoiy munosabatlar mohiyatini anglay boshlaydilar. Rolli o'yinlar bolalarning tasavvuri, nutqi va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularni ijtimoiy muhitga moslashishga tayyorlaydi.

Masalan, "Do'kon", "Shifokor", "Oila" kabi o'yinlar orqali bolalar turli kasb egalarining faoliyati bilan tanishadi, ularning vazifalari va o'zaro munosabatlarini tushunib yetadi. Bunday o'yinlar davomida bolalar muomala madaniyatini o'rganadi, bir-birini tinglash, kelishish va hamkorlik qilish kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalarni egallaydi.

Shuningdek, rolli o'yinlar bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, chunki ular o'z rollarini mustaqil ravishda tanlaydi, syujetni boyitadi va turli vaziyatlarga mos yechimlar topadi. Natijada bolalar nafaqat atrof-muhitni angelaydi, balki o'z his-tuyg'ularini ifodalash va boshqarishni ham o'rganadi.

Harakatli o'yinlar

Harakatli o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishini ta'minlovchi muhim faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu o'yinlar bolalarning sog'lom o'sishi, organizmining chiniqishi hamda harakat faolligining oshishiga xizmat qiladi. Harakatli o'yinlar orqali bolalar nafaqat jismonan chiniqadi, balki faol, tetik va bardam bo'lib ulg'ayadi.

Bunday o'yinlar jarayonida bolalarda chaqqonlik, tezkorlik, muvozanatni saqlash va harakatlarni muvofiqlashtirish (koordinatsiya) kabi muhim jismoniy sifatlar rivojlanadi. Yugurish, sakrash, to'p o'ynash kabi mashg'ulotlar bolalarning mushaklarini mustahkamlaydi, yurak-qon tomir tizimi faoliyatini yaxshilaydi hamda umumiy jismoniy tayyorgarligini oshiradi.

Shuningdek, harakatli o'yinlar bolalarning irodaviy sifatlarini ham rivojlantiradi. Ular o'yin qoidalariga amal qilishni, o'zini boshqarishni, jamoada harakat qilishni o'rganadilar. Bu esa nafaqat jismoniy, balki ijtimoiy va psixologik rivojlanishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada harakatli o'yinlar bolalarni sog'lom, faol va har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Ijodiy o'yinlar

Ijodiy o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning tasavvurini kengaytirish, ijodiy fikrlashini rivojlantirish hamda ularning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu o'yinlar bolalarga erkin fikrlash, yangi g'oyalarni ilgari surish va o'z tasavvurlarini amaliy faoliyat orqali ifodalash imkonini beradi.

Rasm chizish, qurish-yasash, musiqiy va teatr faoliyati kabi ijodiy o'yinlar bolalarning estetik didini shakllantiradi, ularning san'atga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Masalan, rasm chizish jarayonida bola ranglar uyg'unligini his qiladi va o'z his-tuyg'ularini tasvir orqali ifodalaydi. Qurish-yasash faoliyatida esa u mustaqil ravishda shakl va tuzilmalar yaratib, mantiqiy va konstruktiv fikrlashini rivojlantiradi.

Shuningdek, musiqiy va teatr o'yinlari bolalarning emotsional dunyosini boyitadi, ularni erkin harakat qilishga, sahnada o'zini tutishga va ifodali nutqdan foydalanishga o'rgatadi. Bunday faoliyatlar orqali bolalar o'z iste'dodlarini namoyon etadi, o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Umuman olganda, ijodiy o'yinlar bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qilib, ularni mustaqil, tashabbuskor va ijodkor shaxs sifatida shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Tarbiyachining pedagogik roli

O'yin asosida ta'limni samarali tashkil etishda tarbiyachining pedagogik mahorati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachi nafaqat o'yin jarayonini tashkil etuvchi, balki uni maqsadli boshqaruvchi va bolalarning rivojlanishiga yo'naltiruvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois u o'yinlarni bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va rivojlanish darajasiga mos holda tanlashi hamda ularni puxta rejalashtirishi zarur.

Tarbiyachi o'yin jarayonini pedagogik maqsadga yo'naltirib, unda har bir bolaning faol ishtirokini ta'minlashi muhimdir. Shuningdek, u bolalarning mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi va ijodkorligini qo'llab-quvvatlab, o'yin orqali ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni uyg'un holda amalga oshiradi. Bunday yondashuv o'yin faoliyatining samaradorligini oshirib, bolalarning bilimlarni oson va qiziqarli tarzda o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda yurtimizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, bolalarning bilim saviyasini oshirish hamda pedagoglarning kasbiy salohiyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Janubiy Koreya tajribasi asosida "O'yinga asoslangan ta'lim" loyihasi amaliyotga joriy etilmoqda. Mazkur loyiha Koreya Respublikasi KOICA xalqaro agentligi va Dong-Eui universiteti bilan hamkorlikda Toshkent shahri, Nukus shahri hamda Quvasoy tumanidagi maktabgacha ta'lim muassasalarida tajriba-sinov tariqasida yo'lga qo'yilgan.

Loyihani amalga oshirish jarayonida o'zbekistonlik pedagoglar Janubiy Koreyada malaka oshirib, o'yin asosida ta'limning zamonaviy nazariy va amaliy jihatlarini o'rganib qaytganlar. Ular o'z faoliyatlarida innovatsion metodlar, ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda bolalar bilan samarali muloqot usullarini qo'llab, orttirgan tajribalarini hamkasblari bilan bo'lishmoqda.

Natijada ushbu yondashuv maktabgacha ta'lim tizimida yangi pedagogik g'oyalar va metodik yangilashlarni joriy etishga, ta'lim sifatini oshirishga hamda bolalarning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta'minlashga mustahkam zamin yaratmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, o'yin asosida ta'lim maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlani-shida muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. O'yin faoliyati bolalar uchun tabiiy va qiziqarli jarayon bo'lib, ular orqali bilimlarni oson, samarali hamda mustahkam o'zlashtirish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, o'yin asosidagi ta'lim bolalarning mustaqil fikrlashi, muloqot qilish ko'nikmalari va ijodiy qobiliyatlarini rivojlan-tirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tizimida o'yin texnologiyalaridan keng va maqsadli foydalanish bolalarning intellektual, ijtimoiy hamda ijodiy rivojlanishini ta'minlaydi. Bu esa nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki bolalarni keyingi bosqichdagi ta'limga puxta tayyorlashga ham yordam beradi.

Shu bois maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yin asosida ta'limni tashkil etish va uni takomillashtirib borish zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2009.
2. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 19-sonli Prezident far-moni.
3. "Ilk qadam": Maktabgacha ta'lim davlat o'quv dasturi. Toshkent, 2015.
4. Hasanboyeva O. Maktabgacha pedagogika. Toshkent: O'qituvchi, 2010.
5. Vygotskiy L.S. Bolalar psixologiyasi asoslari. Moskva: Prosveshcheniye, 1991.
6. Usmonova M. Maktabgacha ta'lim metodikasi. Toshkent: Fan, 2012.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.